

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI O‘RNI

Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti 4-bosqich talabasi

Gmail:makhmudovazokhida@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Kichik biznesning YaIMdagi ulushi, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni va tarkibi, bandlikdagi ulushi kabi ko‘rsatkichlar dinamikasi o‘rganilgan. Shuningdek, kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati va qo‘llab-quvvatlash choralari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kichik biznes O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim sektori sifatida barqaror rivojlanmoqda va iqtisodiy o‘rinishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, o‘rta biznes, xususiy tadbirkorlik, YaIM, bandlik, iqtisodiy o‘rinish, innovatsiya, raqobat, diversifikatsiya.

Аннотация. В данной статье описываются роль и значение малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике Узбекистана. Изучена динамика таких показателей, как доля малого бизнеса в ВВП, количество и состав действующих предприятий, доля занятости. Также освещены государственная политика и меры поддержки развития малого бизнеса. Согласно результатам исследования, малый бизнес стабильно развивается как важная отрасль экономики Узбекистана и способствует экономическому росту.

Ключевые слова: малый бизнес, средний бизнес, частное предпринимательство, ВВП, занятость, экономический рост, инновации, конкуренция, диверсификация.

Abstract. This article describes the role and importance of small business and private entrepreneurship in the economy of Uzbekistan. The dynamics of indicators such as the share of small businesses in GDP, the number and composition of operating enterprises, and the share of employment were studied. The state policy and support measures for small business development are also covered. According to the research results, small businesses are developing steadily as an important sector of the economy of Uzbekistan and contributing to economic growth.

Keywords: small business, medium-sized business, private entrepreneurship, GDP, employment, economic growth, innovation, competition, diversification.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdir. Bu sektorlar nafaqat milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta’minlaydi, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mustaqil mulk egaligiga, xo‘jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o‘z tarmog‘ida hukmron mavqey tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes subyektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo‘lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, kapitallar, aktivlar, foyda miqdori va boshqa ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. AQShda ishlab chiqarish sanoatida 500 kishidan, boshqa ko‘pgina tarmoqlarda 100 kishi va undan kam xodimlari bor korxonalar kichik biznesga kiritiladi.

O‘zbekistonda kichik biznes va o‘rta biznes subyektlarini aniqlashda korxonalarda ishlaydigan ishchilar soni mezon sifatida olingan. Kichik biznesga mulk shaklidan qat’iy nazar, ishlab chiqarish sohasida yiliga o‘rta hisobda 40 nafargacha, qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqa ishlab chiqarish sohalarda 20 nafargacha, ilm-fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, chakana savdo hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 10 nafargacha ish bilan band bo‘lganlar xodimlarga ega bo‘lgan korxonalar, sanot korxonalarida o‘rtacha 10 nafargacha, savdo, xizmat ko‘rsatish va boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 5 nafargacha xodimlari bo‘lgan mikrofirmalar kiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlangan va rivojlanayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes sharoitga tez moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. Kichik va o‘rta biznes yirik biznes uchun qulay bo‘lmagan sohalarda avj oladi. Kichik biznes kichik bozorlarda faoliyat olib borish, mahalliy resurslardan foydalanish, ishsizlik muammosini hal qilish, mehnat unumdorligini oshirish, o‘rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ichki bozorni iste’mol tovarlari bilan to‘ldirishda muayyan afzalliklarga ega.

O‘zbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-son qarori bilan “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi” qabul qilingan. Dasturda kichik biznes subyektlarini konsultativ hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan. Bu chora-tadbirlarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish yoki kengaytirish uchun 7 yil muddatga 1,5 mlrd so‘mgacha

miqdorda imtiyozli kredit olish; qiymati 1,5 mlrd so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo‘lib to‘lash bilan sotib olish; bo‘sh turgan davlat yer maydonlari va obyektlari, asbob-uskunalar, bino-inshootlar hamda boshqa turdagi moddiy boyliklar shaklida ulush kiritish; litsenziyalar, ruxsatnomalar va sertifikatlar, bojxona va soliq ma‘muriyatchiligi, eksport-import operatsiyalari va shartnomalarni rasmiylashtirish bo‘yicha ma‘lumot va maslahat olish kiradi.⁹

Adabiyotlar tahlili

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotga ko‘p qirrali ta‘sir ko‘rsatadi. Ko‘plab mamlakatlarda YaIMning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Yangi ish o‘rinlarining asosiy manbai hisoblanadi. Shuningdek, tez o‘zgaruvchan sharoitlarda ishchi kuchini tezroq jalb qilish va bo‘shatish imkoniyatini beradi. Kichik korxonalar o‘z navbatida, innovatsion g‘oyalar va yechimlarning generatori bo‘lib xizmat qilishi bilan birgalikda yangi texnologiyalarni tezroq o‘zlashtirish va joriy qilish imkoniyatiga egadir. J.Shumpeter tadbirkorlarni innovatsiyalar orqali eski tizimlarni buzib, yangi iqtisodiy tuzilmalarni yaratuvchilar sifatida ko‘radi. O‘zining “ijodiy vayronkorlik” nazariyasida tadbirkorlarning innovatsiyalar orqali iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini ta’kidlagan. Uning “Capitalism, Socialism and Democracy” (1942) kitobida bu g‘oyalar batafsil yoritilgan. [2]

Kichik bizneslar mamlakatlar iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ular bozor mexanizmlarini kuchaytirib, raqobatni oshiradi, bu esa narxlarni pasaytirish va sifatni yaxshilashga olib keladi. Shu bilan birgalikda, kichik bizneslar yirik kompaniyalar monopoliyasini kamaytiradi va bozorni diversifikatsiyalashuviga yordam beradi. Bu milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

“Yangi ish o‘rinlarining asosiy manbai hisoblanadi.” Bu fikr David Birchning ish o‘rinlari yaratish nazariyasini tasdiqlaydi. Birch o‘z tadqiqotlarida aynan kichik biznes yangi ish o‘rinlari yaratishning asosiy manbai ekanligini ko‘rsatgan. Uning “The Job Generation Process” (1979) hisoboti bu sohada juda ta‘sirli bo‘lgan. [3]

Kichik bizneslar ko‘plab mamlakatlarda eksportning sezilarli qismini ta‘minlaydi. Ular tashqi savdoga hissa qo‘shadi va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashish orqali milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi. Bu milliy mahsulotlarning dunyo bozoriga chiqishiga yordam beradi. Villiam Baumol kichik biznes va tadbirkorlikning raqobat va innovatsiyalarga ta‘sirini o‘rgangan. Uning “The Free-Market Innovation Machine” (2002) kitobi bu mavzuni chuqur yoritadi. [4] Shuningdek, Zoltan Acs kichik biznesning xalqaro raqobatbardoshlikka ta‘sirini o‘rgangan. Uning “Small and

⁹ <https://asr.gov.uz/news/11294>

Medium-Sized Enterprises in the Global Economy” (1999) kitobida bu haqida batafsil ma’lumot berilgan. [5]

Bundan tashqari, kichik bizneslar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi. Ularning diversifikatsiyasi turli sohalarda faoliyat yuritish imkonini beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko‘pincha iqtisodiy inqirozlar davrida moslashunchanroq bo‘ladi va o‘z faoliyatini tezda qayta tashkil qilishlari mumkin.


Scott Shane o‘zining “A General Theory of Entrepreneurship” (2003) kitobida tadbirkorlikning turli sharoitlarga moslashuvchanligini ta’kidlagan. [6] Kichik bizneslar hududiy rivojlanishga ham katta hissa qo‘shadi. Bu to‘g‘risida Hernando de Soto rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesning ahamiyatini ta’kidlagan. Uning “The Mystery of Capital” (2000) kitobi bu mavzuni chuqur o‘rganadi. [7]

Shuningdek, kichik bizneslar ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular tadbirkorlar orqali jamiyatda o‘rta qatlamning shakllanishiga yordam beradi. Kichik bizneslar orqali jamiyatda insonlar o‘z moddiy holatini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘lib, ijtimoiy mobillikni oshiradi va jamiyatda iqtisodiy adolatni ta’minlaydi. Saras Sarasvati o‘zining “effectuation” nazariyasida tadbirkorlarning jamiyatga ta’sirini o‘rgangan. Uning “Effectuation: Elements of Entrepreneurial Expertise” (2008) kitobi bu g‘oyalarni yoritadi. [8]

Tadqiqot natijalari

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kichik biznesning YaIMdagi ulushi 48,6 %ni tashkil etgan. Hududlarda kichik biznesning eng katta ulushi Surxondaryo (hududda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat umumiy hajmining 75,0 % ini tashkil etgan), Buxoro (71,3 %), Namangan (69,7 %) va Jizzax viloyatlarida (69,4 %) kuzatildi. Kichik biznesning eng kam ulushi Navoiy (24,6 %) va Toshkent (47,7 %) viloyatlarida qayd etildi.¹⁰

¹⁰ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi, foizda

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi 2017-yilda 65,3 foizni tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 1-rasmda berilgan yillar mobaynida eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. 2019-yilga kelib esa 56 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda qolgan yillarga nisbatan eng kam ulushni ya’ni 47,5 foizga teng bo‘ldi.

1-jadval

Ro‘yhatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni (yillik, dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)¹¹

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	285 361	300 240	339 034	419 490	503 538	557 756	627 475	688 345
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	137 20	143 81	160 31	188 34	226 67	248 55	279 03	325 47
Andijon viloyati	277 22	260 21	289 16	339 46	409 82	437 54	479 25	508 31
Buxoro viloyati	158 56	165 38	190 93	245 44	296 44	331 58	359 05	394 03

¹¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>

Jizzax viloyati	118 34	128 29	149 69	180 43	220 27	240 29	277 32	305 55
Qashqadaryo viloyati	189 40	191 90	215 50	260 00	311 17	377 58	443 23	473 91
Navoiy viloyati	907 9	974 1	112 81	177 53	213 21	235 95	264 37	285 21
Namangan viloyati	202 54	210 44	223 53	265 68	318 15	346 00	383 74	408 20
Samarqand viloyati	210 18	224 94	262 97	332 50	411 45	493 70	575 11	616 20
Surxondaryo viloyati	139 45	144 06	154 38	196 39	266 15	298 07	331 22	362 28
Sirdaryo viloyati	982 7	101 03	111 09	139 49	164 36	171 08	185 50	203 38
Toshkent viloyati	289 67	307 75	353 85	442 66	522 39	547 68	606 47	665 80
Farg‘ona viloyati	238 24	260 03	295 29	358 51	435 29	484 81	557 16	620 21
Xorazm viloyati	138 68	142 73	157 65	196 05	234 62	266 94	309 56	351 81
Toshkent shahar	565 07	624 42	713 18	872 42	100 539	109 779	122 374	136 309

Ro‘yhatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni 2017-2024-yillar oralig‘ida barqaror o‘sish tendensiyasiga ega. 2017-yilda 285361ta korxona ro‘yhatdan o‘tgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 688345 taga yetgan ya’ni 2,4 barobarga oshgan. (1-jadval) 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, eng ko‘p korxonalar Toshkent shahri (136,309), Toshkent viloyati (66,580) va Samarqand viloyatida (61,620) ro‘yhatdan o‘tgan. Eng kam korxonalar esa Sirdaryo viloyati (20,338), Navoiy viloyati (28,521) va Jizzax viloyatida (30,555) qayd etilgan.

2-jadval

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiyot tarmoqlari kesimida, yillik)

Iqtisodiyot tarmoqlari	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024-yil I
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	18319	21019	24480	29379	41321	46501	53808	37772
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1327	1530	1814	2349	2603	2820	3057	2439
Ishlab chiqarish sanoati	40944	46426	53654	66729	79230	86566	93772	65426
Qurilish	22089	24118	29112	36199	40950	43695	46971	34749
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	11941	12744	13598	14803	15692	17333	19207	18019
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta‘minot	12365	12352	12346	12407	12505	12852	13550	13485
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	3617	3958	4470	5314	5921	6422	7093	5972
Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	11352	12343	13382	15207	17278	18771	20548	18411
Axborot va aloqa	6427	6403	6975	7901	9517	10587	12204	10551
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	4526	3867	3681	3562	3651	3279	3608	2776
Tashish va saqlash	10881	11996	13330	15360	17301	18251	20666	17935
Yashash va	15	17	19	256	301	331	368	283

ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	454	126	812	36	11	04	11	64
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	61 735	63 199	70 902	101 081	132 192	157 129	182 917	158 065
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	11 342	12 511	13 109	135 29	138 93	142 36	150 88	146 37
Ta'lim	19 831	20 226	24 923	277 55	292 41	317 56	341 35	311 85
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	82 41	58 40	67 78	790 3	914 5	103 91	115 97	109 98

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o'sish tendensiyasiga ega. 2024-yil boshida eng ko'p faol korxonalar ulgurji va chakana savdo sohasida (158,065), ishlab chiqarish sanoatida (65,426) va qishloq xo'jaligida (37,772) qayd etilgan. Eng kam faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar esa tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2,439), moliyaviy va sug'urta faoliyati (2,776) hamda san'at, ko'ngil ochish va dam olish (5,972) sohalarida kuzatilgan. Bu ma'lumotlar iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvini va xizmat ko'rsatish tarmog'ining rivojlanayotganini ko'rsatadi. (2-jadval)

3-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi.

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	78	76.3	76.2	74.5	74.5	73.9	74.1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	75.1	75.6	74.9	74.2	74.2	74.1	74.8
Andijon viloyati	84.2	81.7	82.1	80.8	80.7	80.2	81
Buxoro viloyati	78.5	76.5	76.1	74.9	74.2	74.3	74.3
Jizzax viloyati	80.9	79	79.7	78.4	78.8	77.3	77
Qashqadaryo	80	79	78.5	78.1	78.5	78.2	77.5

viloyati							
Navoiy viloyati	59.3	56.2	55	51.9	52.3	51.1	51.4
Namangan viloyati	83.5	83	82.8	81.6	82.2	81	80.6
Samarqand viloyati	84.5	83.1	82.8	81.7	81.5	80.9	81.3
Surxondaryo viloyati	80.9	79.4	79.6	78.2	78.4	76.9	77.2
Sirdaryo viloyati	78.8	77.4	76.4	74.5	74.4	72.9	72.4
Toshkent viloyati	75.1	73.2	72.8	70.8	69.8	70	70.3
Farg‘ona viloyati	80.6	78.9	79.4	78.4	78.5	78.7	79.3
Xorazm viloyati	82.2	80.6	80.4	79.3	79.1	78.1	79.4
Toshkent shahri	56.7	53.1	53.7	49.7	50.2	50	51.5

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 2017-2023 yillarda nisbatan barqaror bo'lib, 74-78 foiz atrofida tebranmoqda. 2023-yilda bu ko'rsatkich 74.1 foizni tashkil etgan. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkichlar Andijon (81%), Samarqand (81.3%) va Namangan (80.6%) viloyatlarida kuzatilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Navoiy viloyati (51.4%), Toshkent shahri (51.5%) va Toshkent viloyatida (70.3%) qayd etilgan. Bu kichik biznesning mamlakat mehnat bozorida muhim rol o'ynashining yana bir tasdig'idir.

Xulosa

Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim va o'sib borayotgan sektoridir.

Nazariy jihatdan, J.Shumpeter, David Birch, Villiam Baumol kabi olimlarning tadqiqotlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsiyalar, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sishga ta'sirini tasdiqlaydi. O'zbekistonda olib borilayotgan izchil davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash choralari bu sohaning yanada rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning birinchi yarmida kichik biznesning YaIMdagi ulushi 48,6 foizni tashkil etgan. 2017-2024 yillar oralig'ida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 2,4 barobarga oshgan, bu esa tadbirkorlik faolligining sezilarli darajada o'sganini ko'rsatadi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni barcha iqtisodiy tarmoqlarda o'sish tendensiyasiga ega, ayniqsa savdo, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sohalarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 2023-yilda 74,1 foizni tashkil etgan.

Biroq, hududlar kesimida kichik biznesning rivojlanishida notekislik kuzatilmoqda. Ba'zi viloyatlarda yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lsa, boshqalarida nisbatan past ko'rsatkichlar kuzatilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, raqobatni kuchaytirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish mumkin. Buning natijasida, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelajakda bu sohani yanada rivojlantirish uchun hududiy notekisliklarni bartaraf etish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aghion, P., & Howitt, P. (1990). A model of growth through creative destruction. [National Bureau of Economic Research Working Paper](#).
2. Schumpeter, J. A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers.
3. Birch, D. L. (1979). The Job Generation Process. MIT Program on Neighborhood and Regional Change.
4. Baumol, W. J. (2002). The Free-Market Innovation Machine: Analyzing the Growth Miracle of Capitalism. Princeton University Press.
5. Acs, Z. J., Morck, R., Shaver, J. M., & Yeung, B. (1997). The Internationalization of Small and Medium-Sized Enterprises: A Policy Perspective. *Small Business Economics*, 9(1), 7-20.
6. Shane, S. A. (2003). A General Theory of Entrepreneurship: The Individual-Opportunity Nexus. Edward Elgar Publishing
7. De Soto, H. (2000). The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. Basic Books.
8. Sarasvathy, S. D. (2008). Effectuation: Elements of Entrepreneurial Expertise. Edward Elgar Publishing.
9. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>